



UMUMTA'LIM MAKTAB DIREKTORLARINING KREATIV AXBOROT-KOMMUNIKATSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Abdullayeva Dilnoza Nosirjonovna,

Oriental Universiteti,

e-mail: d.abdullayeva@orinetaluniversity.uz

***Annotatsiya.** Mazkur magistrlik dissertatsiyasida umumta'lim maktab direktorlarini kreativ axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish va uning sifat darajasini ko'tarishdagi mavjud muammolar, umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlariga qo'yiladigan talablar, umumiy o'rta ta'lim faoliyatini takomillashtirishda rahbarning vazifalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari uchun tavsiya va takliflar, umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorligiga nomzodlarning maktabni rivojlantirish bo'yicha dastur loyihasini amalga oshirish mexanizmi va yo'nalishlari, malakali kadrlar bilan ta'minlash va pedagoglar salohiyatini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** umumta'lim maktab direktorlari, kreativ, axborot-kommunikatsion kompetentlig, samaradorlik.*

Kirish. Ta'lim muassasalari rahbariyatining zamonaviy jamiyat va ta'lim tizimining talablariga javob berishdagi rolini kuchaytirishni maqsad qilgan. Ushbu mavzuning dolzarbligi quyidagi omillar bilan asoslanadi: Zamonaviy ta'lim tizimi tez o'zgaruvchan texnologiyalar va global ijtimoiy iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchan bo'lish talab etadi. Maktab direktorlarining kreativ va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni samarali qo'llay olish kompetentliklari, ta'lim muassasalarining ushbu talablarga javob berish qobiliyatini sezilarli darajada



oshiradi. Zamonaviy pedagogikada o'qitish va o'rganish usullarining samaradorligini oshirish uchun axborot-kommunikatsion texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Maktab direktorlarining ushbu sohadagi kreativ yondashuvlari, o'qitish va o'rganish jarayonlarini yanada interaktiv va samarali qilishga yordam beradi. Maktab direktorlari nafaqat administrativ, balki o'qitish va o'rganishning sifatini yaxshilash bo'yicha ham mas'uliyatni zimmasiga oladi. Ular o'qitishning yangi usullarini qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida ijodiy va innovatsion muhitni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Ijodiy fikrlashni va texnologiyalardan foydalanishni birlashtirgan yondashuv, ta'lim muassasalarida o'qitish va o'rganishning yangi paradigmasini taklif etadi. Maktab direktorlarining bu boradagi kompetentliklari, ta'lim jarayonida texnologiyalarning samarali integratsiyasini ta'minlashga yordam beradi.

Xalqaro ta'lim standartlari tobora ko'proq AKTga asoslangan o'qitish va o'rganish metodlarini talab qilmoqda. Maktab direktorlarining bu sohada yuqori kompetentligi ta'lim muassasalarini global standartlar sari boshlaydi, bu esa o'quvchilarning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshiradi. Hozirgi kunda o'quvchilarga faqat mavjud bilimlarni emas, balki kelajakdagi muammolarni hal qilishda foydalaniladigan kreativ fikrlash va muammo yechimini topish ko'nikmalarini ham o'rgatish muhimdir. Maktab direktorlarining AKT sohasidagi innovatsion yondashuvlari, shu jumladan ta'lim dasturlarini moslashuvchan rejalashtirish qobiliyatlari, bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega. AKT yordamida maktab direktorlari ta'limda ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlash, masofaviy ta'limdagi imkoniyatlardan foydalangan holda barcha o'quvchilarga, jumladan chekka hududlarda yashovchilarga ham ta'lim taklif qilish mumkin. Bu, o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy va geografik cheklovlaridan qat'i nazar, sifatli ta'lim olishlarini ta'minlaydi. Maktab direktorlarining AKT sohasidagi bilimlari ularni yangi pedagogik texnologiyalar, jumladan o'yin-asosidagi o'rganish, invert



qilingan sinf xonasi va boshqalarni o'z ta'lim strategiyalariga samarali integratsiya qilishga imkon beradi. Bu esa o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Tadqiqotning obyekti. Umumta'lim maktab direktorlarini kreativ axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari.

Tadqiqotning predmeti. Umumta'lim maktab direktorlarini kreativ axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqot farazi.

Tadqiqot ishining asosiy farazlari quyidagilardan iborat: Agar maktab direktorlarining kreativ axborot-kommunikatsion kompetentliklari yaxshilansa, bu ularning o'quv jarayonini samarali boshqarish qobiliyatini oshiradi va natijada o'quvchilarning bilim sifati yaxshilanishi mumkin. Ta'lim muassasalari direktorlarining axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanishi, maktablarda innovatsion ta'lim yondashuvlarini joriy etishni tezlashtiradi. Maktab direktorlarining rivojlangan kreativ va axborot-kommunikatsion kompetentliklari, o'qituvchilarni yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llashga va o'quvchilarni faol ishtirok etishga undashi mumkin. Umuman olganda, tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari maktab direktorlarining kreativ axborot-kommunikatsion kompetentliklarini oshirishning muhimligi, metodlari va kutilayotgan natijalari atrofida aylanadi. Bunda, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta'lim muassasasida innovatsion yechimlarni qo'llashni rag'batlantirish va o'qituvchi hamda o'quvchilarning motivatsiyasini yuksaltirish kabi asosiy maqsadlar qo'yiladi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikalar tavsifi. Tadqiqot jarayonida belgilangan vazifalarni yechimini topish maqsadida quyidagi kompleks nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ekspert baholash, ijtimoiy metodlar (anketa, so'rovnoma, suhbat, test), muammoga oid



hujjatlarning nazariy hamda qiyosiy pedagogik tahlili, ekspert baholash va matematik-statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati. Tadqiqot ishining nazariy ahamiyati quyidagilardan iborat: Maktab direktorlarining kreativ axborot-kommunikatsion kompetentliklarini rivojlantirishga doir nazariy asoslar va metodologiyalarni boyitadi. Ta'lim muassasalari rahbariyatini kreativ yechimlar va AKTdan samarali foydalanish strategiyalarini yaratishda ushbu nazariy asoslar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqot, maktab rahbariyatining kreativ va innovatsion yondashuvlarini ta'minlaydigan kompetentliklarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy ta'riflarni va nazariyalarni kengaytiradi. Shu tariqa, u ta'lim sohasida kompetentliklar nazariyasining chuqurroq tushunilishiga yordam beradi.